

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG‘ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Pushtu tilida inglizcha o‘zlashmalar

Ishda pushtu tili lug‘at boyligining tashqi manbalar ta’sirida yuz bergan miqdor va sifat o‘zgarishlarini tadqiq etilgan. Unda ingliz tilidan pushtu tiliga kirib kelgan o‘zlashmalarni tematik guruhlariga ajratish, ma’no o‘zgarish holatlarini aniqlash, fonetik moslashuvlarni tadqiq etish, til rivojida o‘zlashmalarning o‘rni qay darajada ekanligini aniqlash va shularga doir boshqa dolzarb muammolarni o‘rganilgan.

Bajardi: 5220100 – Filologiya (sharq tillari)
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kursi talabasi
Baxronov Mehridin Samandar o‘g‘li

Ilmiy rahbar: Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida
dotsenti, f.f.n. Alimova X. _____

Toshkent-2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti
dekani f.f.n., dots. Omonov Q._____

Eron-afgʻon filologiyasi kafedrasini mudiri,
f.f.n., dots. Alimova X._____

« ____ » _____ 2014 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Fakultet: Sharq filologiyasi
va falsafa
Kafedra: Eron-afg‘on filologiyasi
O‘quv yili: 2013-2014

Bakalavriat talabasi:
Baxronov Mehridin Samandar o‘g‘li
Ilmiy rahbar:
fil.fan.n., dots. Alimova X.

Pushtu tilida inglizcha o‘zlashmalar mavzusidagi BMI
Annotatsiyasi

Dunyo tillarining hech birisi yo‘qki, rivojlanish va o‘shish bosqichini tashqi omillar tasirisiz bosib o‘tgan bo‘lsa. Har bir tilning lug‘at boyligi shakllanishi uchun avvalambor, tilning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan so‘zlar va boshqa tillar bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sir natijasida tilning lug‘at boyligiga qabul qilingan so‘z va qo‘shimchalar, ya’ni o‘zlashmalar asos bo‘ladi. Albatta, mazkur holat har bir tilda turlicha kechadi. Bu ushbu tilning boshqa tillar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qay darajada aloqaga kirishganligiga bog‘liqdir.

Ko‘rib o‘tilayotgan mazkur ishda hind-yevropa tillar oilasining eroniy tillar guruhiga kiruvchi pushtu tili lug‘at boyligining tashqi manbalar ta’sirida yuz bergan miqdor va sifat o‘zgarishlarini tadqiq etishga harakat qilindi. Unda ingliz tilidan pushtu tiliga kirib kelgan o‘zlashmalarni tematik guruhlarga ajratish, ma’no o‘zgarish holatlarini aniqlash, fonetik moslashuvlarni tadqiq etish, til rivojida o‘zlashmalarning o‘rni qay darajada ekanligini aniqlash va shularga doir boshqa dolzarb muammolarni o‘rganish ko‘zda tutildi.

Ilmiy rahbar:

fil.fan.n., dots. Alimova X.

Bakalavriat talabasi:

Baxronov Mehridin Samandar o‘g‘li

Mundarija

Kirish	4
I bob. Ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarni leksik-semantik tahlili...	7
1.1 Ijtimoiy-siyosiy leksika.....	11
1.2 Ilmiy va texnik terminologiya leksikasi.....	20
II bob. Ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarning gramatik xususiyatlari.	22
2.1. O‘zlashmalarning fonetik moslashuvi.....	22
2.2. O‘zlashmalarning ma’no kengayishi va torayishi.....	29
III bob. Pushtu tili leksikasining rivojida ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarning o‘rni.....	33
3.1. O‘zlashmalar ishtirokida so‘z yasalihi.....	34
3.1.2. Affiksatsiya	35
3.1.2. Yarimaffiksatsiya	37
3.1.3. Kompozitsiya	39
3.1.4. Leksikalizatsiya	40
3.1.5. Gibril terminlarning so‘z yasalihiidagi o‘rni.....	40
Xulosa	42
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	43

Kirish

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”¹

Tilning lug‘at tarkibining rivoji ma‘lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug‘at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o‘tishi bilan o‘ziga xos ma‘lum o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ma‘lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta’sirida, obyektiv ravishda, ma‘lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so‘z qabul qilinishi ham shunday. Til o‘zida vositalar, imkoniyatlar bo‘lgan holda boshqa, o‘zga tildan so‘z olmaydi. Qabul qilinuvchi so‘z ma‘lum, biror yangi tushuncha anglatasa, yangi informatsiya tashisa yoki u yoki bu semantik yukka ega bo‘lsagina tilga kirishi mumkin².

Til ijtimoiy hodisa va u doimo rivojlanishda bo‘ladi. Uning rivojlanishi ikki omilga bog‘liq: Ichki va tashqi omilga. Tashqi omilga o‘zlashmalar kiradi. O‘zbek tili leksikologiyasida o‘zlashmaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bir tildan ikkinchi bir tilga til elementlarining qabul qilinishi, o‘tishi **o‘zlashtirish** deb yuritiladi. O‘zlashtirish tufayli bir tildan ikkinchisiga o‘tgan til elementlari **o‘zlashmalar** deb yuritiladi³.”

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo tillarining hech birisi yo‘qki, rivojlanish va o‘sish bosqichini tashqi omillar tasirisiz bosib o‘tgan bo‘lsa. Har bir tilning lug‘at boyligi shakllanishi uchun avvalambor, tilning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan so‘zlar va boshqa tillar bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sir natijasida tilning lug‘at boyligiga qabul qilingan so‘z va qo‘shimchalar, ya’ni o‘zlashmalar asos bo‘ladi. Albatta, mazkur holat har bir tilda turlicha kechadi. Bu ushbu tilning boshqa tillar

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 185.

² O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. - B. 48.

³Ko‘rsatilgan manba. - B.83.

bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qay darajada aloqaga kirishganligiga bog'liqdir.

Ko'rib o'tilayotgan mazkur ishda hind-yevropa tillar oilasining eroniy tillar guruhiga kiruvchi pushtu tili lug'at boyligining tashqi manbalar ta'sirida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlarini tadqiq etishga harakat qilindi. Unda ingliz tilidan pushtu tiliga kirib kelgan o'zlashmalarni tematik guruhlariga ajratish, ma'no o'zgarish holatlarini aniqlash, fonetik moslashuvlarni tadqiq etish, til rivojida o'zlashmalarning o'rnini qay darajada ekanligini aniqlash va shularga doir boshqa dolzarb muammolarni o'rganish ko'zda tutildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Pushtu tili lug'at boyligi va uning tarkibidagi Yevropa tillariga oid so'zlarni o'z asrida birinchilardan bo'lib qayd etgan shaxs norveg olimi Morgenstern⁴ hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha to'liqroq ishni amerikalik olim G. Penzlning "Western Loanwords in modern Pashto"⁵ deb nomlangan maqolasida ko'rishimiz mumkin. Rus olimlaridan K.A. Lebedev⁶, M.G. Aslanov⁷ va boshqa afg'onshunos olimlar ancha samarali tadqiqotlar qilishgan.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. William J. Bennetning Humoyun Xatak tarjimonligi ostida chop etilgan "رېښتینۍ بډې" [Rəštinay būṭba] hikoyalar to'plami⁸, Amir Afg'on Purning "Xovra" asari, Bismilo Haqmalning "لنډې كيسې" [lande kise] hikoyalar to'plami⁹, "Hevod" gazetasi va "Kobul" jurnalining internet saytlari, "Afganistan.ru", "afgannews.com" internet saytlariva o'zlashmalarga oid maqolalar tadqiqot ishining manbai bo'lib xizmat qildi. (adabiyotlar ro'yxatida qayd qilinmoqda).

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishda asosiy e'tiborni pushtu tilining tashqi manbalar asosida ro'y bergan o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini tarixiy-tadrijiy (diaxronik) kuzatish va shu tashqi ta'sirlar ostida

⁴Etymological vocabulary of Pashto, Olso, 1927.

⁵Journal of Oriental Society.-Washington, 1961.

⁶Грамматика языка пушту. - Москва, 1956.

⁷Пушту-русский словарь. - Москва, 1966.

⁸Kobul, 2009.

⁹Directorate of Zeray Weekly Institute of Languages and Literature.The Academy of Sciences of Afghanistan. - Kobul, 1979.

yuz bergan hodisalarning ayrim bir davrlar, pushtu tilining muayyan bir tarixiy bosqichlariga bogʻlab oʻrganish koʻzda tutildi.

Ishning asosiy maqsadi pushtu tiliga ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlarni son va sifat jihatidan tahlil qilishdir. Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1) pushtu tiliga oʻzlashgan va pushtu adabiy tili hamda soʻzlashuv nutqida qoʻllanib kelinayotgan ingliz tiliga oid soʻzlarni yigʻish, hajmini (taxminiy) aniqlash;

2) ularni tematik guruhlariga ajratish;

3) ulardagi oʻzlashish jarayonida roʻy bergan fonetik, orfografik va semantik oʻzgarishlarni tahlil qilish;

4) pushtu tili leksikasi rivojida inglizcha oʻzlashmalarning oʻrnini aniqlash;

5) yigʻilgan misollar asosida oʻzlashmalarning ingliz va pushtu tillaridagi hozirgi kundagi maʼnolarini ilova tarzida keltirish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar. Ushbu bitiruv malakaviy ishda pushtu tiliga oʻzlashgan yevropa soʻzlari orasidan ingliz tilidan oʻzlashmalar ajratib olinib, ular ikki davrga boʻlingan holda fonetik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilindi va tematik guruhlariga ajratildi. Bu pushtu tilidagi ingliz tilidan oʻzlashmalar boʻyicha qilingan oʻzbek tilidagi dastlabki ilmiy izlanishdir.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ish pushtu tilida ingliz tilidan oʻzlashmalar boʻyicha dastlabki tadqiqot boʻlganligi sababli, terminologiya sohasida ish olib borayotganlar uchun muhim manba boʻlishi mumkin. Ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlarning boshqa yevropa tillaridan ajratib olinganligi, tematik guruhlariga ajratilganligi, fonetika, orfografiya va yasalishi haqidagi maʼlumotlar ular uchun qator qulayliklar yaratadi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat.

I bob. Ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarning leksik-semantik tahlili

Ilm-fan, texnika tarqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko‘pchilik sohalaridagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so‘z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo‘lishiga qaramay, pushtu tili lug‘at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir qilib kelyapti. Kirib kelgan yangi so‘z va terminlar pushtu tilining o‘z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan pushtun xalqi o‘zining og‘zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelmoqda.

O‘zlashmalarning tilga kirib kelishi har davrda o‘ziga xos bo‘lgan. Inglizcha o‘zlashmalarning pushtu tiliga kirib kelishining dastlabki davrlarida og‘zaki nutq, og‘zaki aloqa muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, keyinchalik yozma manbalar, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari nutqi, ayniqsa tarjima va matbuot tili muhim rol o‘ynagan.

Agar so‘z o‘zlashuvining aniq sabablariga to‘xtalsak, birinchi navbatda, shuni aytish kerakki, bir til ikkinchi bir tildan birorta so‘z o‘zlashtirish uchun shu o‘zlashayotgan so‘z qabul qiluvchi tilda bo‘lmaganligi, u o‘sha tilda zarur va hayotiy ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lgan narsani anglatib va ifodalab kelganligi asosiy omildir. Bu holatlar uchun, odatda, o‘zga tildan qabul qilinayotgan narsa, predmet, hodisa va tushunchalar bilan ularning nomlarining o‘zlashuvi xarakterli hisoblanadi. Bunday paytlarda qabul qiluvchi til juda tejamkor bo‘lishga intiladi, binobarin, kirib kelayotgan yangiliklarni iloji boricha bir so‘z tarzida o‘zlashtiradi. Unga mahalliy tilda izoh berilib o‘tirilmay, o‘sha yangi predmet, hodisa yoki yangi tushuncha o‘z holicha qabul qilinadi.

Biz mazkur ishda pushtu tilida ingliz tilidan o‘zlashmalar bo‘yicha jami 400¹⁰ ta nafaol bo‘lgan va 200 ta faol tarzda vaqtli nashrda uchragan inglizcha o‘zlashma so‘zlarni yig‘ib, ularni tadqiq etish orqali inglizcha o‘zlashmalarining hozirgi bosqichdagi holati, grammatik xususiyatlarini atroflicha o‘rganib chiqdik.

¹⁰English-Pashto Dictionary. Pashto Academy. – Kobul, 1975.

Afg'oniston keyingi yillarda iqtisodiy va madaniy rivojlanayotgan, davlat tiliga ko'plab yevropa tillaridan o'zlashmalar kirib kelayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Inglizcha so'zlarining pushtu tili leksikasiga kirib kelishining asosiy sababi Afg'onistonning Britaniya mustamlakasi bo'lgan Hindiston bilan qo'shniligi va o'zaro tashqi aloqalar o'rnatilganligidir.

Pushtu tiliga o'zlashgan Yevropa so'zlarining aksariyat qismini ingliz so'zlari tashkil qiladi. Bu so'zlar pushtu tiliga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bevosita hind tili orqali kirib kelgan. Bunga sabab hozirgi Pokiston hududidagi istiqomat qiluvchi pushtuzabon xalq Britaniya Hindistoni tarkibida edi. Shu sababli ingliz mustamlakachilari pushtun xalqini o'z nazoratlarida saqlab turish maqsadida pushtu tili va adabiyotini o'rganishni boshlashgan. Ushbu ishga ko'plab olimlar jalb etilgan. Avval, pushtu tilida yozish va o'qish, undan so'ng esa pushtun xalqi folklorini tadqiq etish boshlangan. Pushtu tili leksikasini o'rganish esa XIX asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Bu paytda inglizlar Afg'onistonni mustamlaka qilish uchun urush harakatlarini boshlashgan edi. 1868-yilda H.G. Raverti inglizcha-pushtucha lug'at¹¹ yaratdi. Undan so'ng yana bir ingliz olimi H.W. Bellev ham 1891-yilda pushtu tili lug'at boyligi haqida kitob¹² chop ettirdi.

Afg'on olimlarining o'zi pushtu tili leksikasi bo'yicha birinchi bo'lib Pokiston hududida ilmiy ish olib borishdi. Munshiy Ahmadjon Mavlaviy Ahmadning "Mahmud G'aznaviy saltanati" nomli asarining tarjimai uchun "pushtucha-inglizcha" lug'at tuzgan.

Rus olimlari Sobiq Ittifoqda pushtu tilini o'rganishni XIX asrda boshlangan bo'lsa ham, XX asr o'rtalariga kelib leksika bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Bularning eng yirigi 1966-yilda nashrdan chiqqan M.G.Aslanovning "Пушту-русский словарь" nomli lug'ati. Lug'atshunoslardan P.B. Zudin 1950-yilda 12 ming so'z va iboralardan tashkil topgan "Афганско-русский словарь" nomli lug'at yaratdi. Undan so'ng L.S.Yatseyevich, K.A.Lebedev, Z.M.Kalinina

¹¹A Dictionary of Pushto or Language of the Afghans, London-Calcutta, 1868.

¹²A Dictionary of the Pukhto or Pukhto Language, Lahore-1891.

hammuallifligida 1983-yilda 35 ming soʻz va iboralardan iborat “Русско-пушту словарь” nomli lugʻat yaratishdi.

Afgʻon olimlarining oʻzlari Pashto Toʻlana Akademiyasi rahbarligida pushtu va boshqa tillarga oid bir necha lugʻatlar yaratishdi. Ulardan Afgʻoniynavisning 50 ming soʻz va iboralardan tashkil topgan “pushtucha-forscha” va Ziyos Pashtunning 55 ming soʻz va iborani oʻz ichiga olgan “pushtucha-ingilizcha” lugʻatlari katta ahamiyatga ega.

Har qanday milliy tilning lugʻat tarkibi, uning jami soʻz boyligi mazkur millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. U doimo harakatda va oʻsishda boʻladi. Tilning rivojlanish samarasi esa, asosan ikki omilga, uning ichki va tashqi oʻsish manbalaridan qanday foydalana bilishiga bogʻliq boʻladi.

1980-1990-yillarda Afgʻoniston davlat tuzumi va ijtimoiy-siyosiy hayotida roʻy bergan oʻzgarishlar natijasida pushtu tilining lugʻat tarkibiga rus tilidan yangi soʻzlar oʻzlashgan boʻlsa, hozirgi kunda, yaʼni 2000-2014-yillar oraligʻida Afgʻonistonga Xavfsizlikni Saqlash kuchlari kiritilgandan soʻng pushtu tiliga yevropa tillaridan oʻzlashgan oʻzlashmalar soni kun sayin oshib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda dunyoda roʻy berayotgan texnik taraqqiyot va globallashtirish jarayoni jahon tillariga oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda, ularning lugʻat tarkibiga yangi soʻzlarning kirib kelishida muhim rol oʻynamoqda. Jumladan, hozirgi kunda Afgʻonistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohada yuz berayotgan jarayonlarning taʼsiri Afgʻoniston xalqlari tillari, xususan, Afgʻonistonning davlat tili boʻlgan pushtu tili¹³ lugʻat tarkibida yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Ingliz tilidan pushtu tiliga kirgan soʻzlar turli sohalardagi atamalarda oʻz aksini topmoqda, bu holat ayniqsa matbuotda berilayotgan maqola va xabarlarda koʻplab uchraydi:

په دغه لوبه کې به دافغانستان، هند او نيپال ټيمونه په يو ګروپ کې لوبه کوي¹⁴.

Mazkur oʻyinda Afgʻoniston, Hindiston va Nepal **jamoalari bir guruhda oʻynashadi.**

¹³Afgʻonistonning rasmiy davlat tili 2 ta: pushtu va dariy(forsiy-kobuliy).

¹⁴۱۷ کلو څخه ټيټ عمر لرونکو د فوټبال آسيابي سيالي په هند کې دايرېږي. ۲۰۱۰ م ل ۳Afgan.ru

په هر هالت کې دغه مسئلې د عراق د ملي واکمنتوب له پرابليمن سره تماس پيدا کوي¹⁵.

Har qanday holatda ham ushbu masala Iroq milliy hukumati muammosiga aloqador.

کرزی: *ناتو د افغانانو د رنځ او کړاو لامل ده*¹⁶.

Karzay: NATO afg'onlarning dardi va hasratiga sherikdir.

Pushtu tiliga kirgan inglizcha o'zlashmalar juda sermahsul bo'lib, quyida ulardan matbuot materiallarida uchragan o'zlashmalarning bir qismi misol tariqasida keltirilmoqda.

Inglizcha o'zlashmalar mazkur ishda ikki bosqichga bo'lib o'rganildi, ya'ni 1970-2000-yillar va 2001-2014-yillar oralig'idagi davrlar. Bunday yondashuvga kelishga quyidagi xulosalar sabab bo'ldi:

1) 2001-yilda Afg'oniston hududiga BMT ning Xavfsizlik kuchlari kirishi bilan matbuotda inglizcha o'zlashmalar, ayniqsa harbiy terminlarning salmog'i ortdi;

2) Fan texnika sohasidagi ko'plab kashfiyotlar tezlik bilan kirib kela boshladi;

3) Mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy ahvol pushtun xalqi integratsiyasini kuchaytirib yubordi va buning natijasida ingliz tilini o'rganish, inglizcha terminlardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish kuchaydi;

1970-2000-yillar orasidagi bosqichga doir 400¹⁷ ta nafaol bo'lgan va 200 ta faol tarzda vaqtli matbuotda uchragan inglizcha o'zlashmalar aniqlandi. Quyida keltirilgan o'zlashmalar aslida ingliz tili uchun ham o'zlashma hisoblanib, XVI va XIX asrlar oralig'ida turli Yevropa tillaridan o'zlashgan¹⁸, lekin vaqt o'tishi davomida ushbu so'zlar shu qadar tilga singib ketdiki, tub so'zdan farqi qolmadi. Mazkur bosqichda ijtimoiy-siyosiy sohaning madaniyat, o'rin-joy va sportga oid so'z va terminlar ko'proq qismni tashkil etadi. Quyida ularga misollar keltiriladi:

¹⁵ Afghan.ru ۲۴ اکتبر ۲۰۱۱ م

¹⁶ BBC.pashto.com 2013.10.16

¹⁷ English-Pashto Dictionary. Pashto Academy, - Kobul. 1975.

¹⁸ ABBYY Lingvo x3, -UK. 2008.

Madaniyat sohasida san'at, adabiyot va matbuotga doir o'zlashmalar pushtu tili yozma va og'zaki nutqida mahsuldorligi yuqoridir.

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	تئاتر	[teātr]	theatre	teatr
2.	کنسرت	[kansert]	concert	konsert
3.	بیبلوگرافی	[biblōgrāfay]	bibliography	biblografiya
4.	کلاسیک	[klāsik]	classic	mumtoz
5.	میتودولوژی	[metodolūji]	methodology	metodologiya
6.	کره کتونکی	[karakatūnkay]	caricaturist	karikaturachi
7.	سرکس	[sirkas]	circus	sirk
8.	کارنېوال	[kārnivāl]	carnival	karnaval

Quyida ularga misollar:

استاد روحی وویل: «د افغانستان د علومو اکادمي له خوا د ادبي تاریخ لیکنه د میتودولوژی په سیمینار کی د پښتو ادبي تاریخ لپاره یوه دوره بندي منل شوې ده، د دغې دوره بندۍ له مخې د پښتو ادبیاتو تاریخ په دریو دورو کی لیکل کیږي: لومړۍ دوره، دویمه دوره او دریمه یا معصر دوره.»¹⁹

Ustoz Ruhiy dedi: “ Afg'oniston fanlar akademiyasi tomonidan adabiyot tarixini yozish metodologiya seminarida pushtu adabiyoti tarixi uchun shunday bir davrlashtirishni qabul qilish kerakki, unda adabiyot tarixi uch davrga bo'lgan holda yozilsin: birinchi davr, ikkinchi davr va uchinchi davr yoki zamonaviy davrlar.”

همدې ستونزه ته په پاملرنه د غربت په دیار کی د ځینو راټوکیدلیو ادبی غوټیو یادونه په درېیم پړاو کی نه ده شوې، نو زما په خیال د دغه لاندې ځوانو کیسه لیکونکیو، شاعرانو، کرهکتونکیو، د ادبی آثارو ژباړونکیو او ادبی څیړونکیو یادونې د دغه کتاب د اوښتون په پړاو کی لازمی دي.²⁰

Mazkur muammo yuzasidan g'arb dunyosidagi ba'zi rivojlanayotgan adabiyot sohalari uchinchi bosqichda eslanmaydi, lekin mening fikrimcha quyidagi yosh hikoyanavislar, shoirlar, karikaturachilar, adabiy asarlar tanqidchilarini ushbu kitobning o'zgartirish bosqichida qayd etish lozimdir.

O'rin-joyga oid so'zlar:

ص-۲۶۰ د ټولنپوهنې مقدماتی کورس. کابل-۱۳۶۴¹⁹

²⁰Ko'rsatilgan manba b-130.

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	تئاتر	[teātr]	theatre	teatr binosi
2.	اپاتمان	[āpātmān]	apartment	kvartira
3.	رستوران	[restōrān]	restaurant	restoran
4.	کمپ	[kamp]	camp	lager
5.	جیل	[jel]	jail	qamoqxona
6.	بالکون	[bālkōn]	balcony	balkon
7.	کوریدور	[kōridōr]	corridor	yo'lak
8.	هوتل	[hōtal]	hotel	mehmonxona
9.	مارکیٹ	[mārket]	market	bozor
10.	کلینیک	[klinik]	clinic	shifoxona

Quyida ularga misollar:

خبرخاڼگه د پاکستان د خیبر پښتونخواه چارواکي وايي چي د یوه مارکیټ په یوه رستوران کي د بم چاودنه شوې، اته کسه یې وژلي او لس کسه نور یې زخمي کړي دي. مامورینو ویلي دي چي دا حمله نن د شنبې په ورځ د باجوړ د قبایلي سیمي د(سالارزو) په یوه بازار کي وشوه²¹.

Xabarning davomi: Pokistonning Xaybar Pushtunxvoh mahalliy hukumat vakillari aytishicha, bir bozorning bir restoranida bomba portlagan, 8 kishi halok bo'lgan va 10 kishi jiddiy jarohatlangan. Mas'ul xodimlarning so'zlariga qaraganda ushbu qo'poruvchilik harakati bugun shanba kuni Bojur qabilalari hududidagi bir bozorda sodir bo'lgan.

د جمیکا د پلازمینې کینگستون په سټیډیم کې زرگونه خلک راټول شوي وو، د خپل اتل د ځغاستې ننداره یې کوله او د هغه د سرو زرو مډال یې ولمانځه²².

Yamayka poytaxtining Kingston stadioniga minglab xalq to'plandi, xalq qahramon sportchini tomosha qildi va uning oltin medalini qutladi.

Sportga oid so'zlar:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	بيسبال	[besbāl]	baseball	beysbol
2.	باسکېټ بال	[bāsketbāl]	basketball	basketbol

²¹Afganistan.ru 2010.07.24.

²²Afgannews.com 2012.08.18.

3.	بوکس	[bōks]	boxing	boks
4.	بیلیارد	[biliard]	billiards	bilyard
5.	کریکیت	[kriket]	cricket	kriket
6.	فوتبال	[futbāl]	football	futbol
7.	گول	[gol]	goal	gol
8.	گول کیپر	[golkepər]	goalkeeper	darvozabon
9.	تنیس	[tenəs]	tennis	tenis
10.	پینگ پانگ	[pingpāng]	ping-pong	stol tenisi

Quyida ularga misollar:

ټولو هیوادونو د غونډې په ترڅ کی خپل د فوتبال فدراسیونونو راپورونه وړاندې کړل²³.

*Barcha mamlakatlarning a'zolari navbat bilan o'zlarining **Futbol Federatsiyasi hisobotlarini** taqdim etishdi.*

مطیع الله عابد واشنگټن دا د افغانستان د فوتبال په نوي کلن تاریخ کې لومړی ځل دی چې د افغانستان فوټبالټیم د فوتبال د نړیوال فدراسیون څخه دا ډول مهمه جایزه ترلاسه کوي. افغانستان د فوټبال د کال ۲۰۱۳ د باتور ټیم جایزه واخیسته دغه جایزه هرکال په نړۍ کې هغه ټیم، شخص یا ادارې ته ورکول کیږي، چې په تیر یوه کال کې یې د لوبې اصول رعایت کړي وي او په میرانه لوبیدلي او یا پې د سختو شرایطو سره د فټ بال ودې ته کار کړی وی²⁴ . . .

*Muteulloh Ibd Vashingtonda Afg'oniston **futbolining** yangi yosh tarixida birinchi marta Afg'oniston futbol jamoasi uchun FIFA ning ushbu muhim mukofotini qabul qildi. Afg'oniston futboli 2013-yilning g'olib jamoasi nomini oldi, ushbu nom har yili dunyoda bir yil davomida bo'lib o'tgan o'yin qoidalariga amal qilgan va g'olibona o'yin ko'rsatgan yoki o'g'ir sharoitlarda **futbol** o'yinini rivojlantirgan shaxs yoki idoraga beriladi.*

2001-yildan keyingi davrda ingliz tilidan pushtu tiliga o'zlashgan so'zlar. Mazkur bosqichda o'zlashmalar orsida fan-texnika yutuqlari, xalqaro tashkilot nomlarining abreviatsiyalari va harbiy terminlar soni oshdi. Quyida ularga misollar:

Fan-texnika yutuqlari:

²³Hewad.com 2011.12.15.

²⁴BBC.com 2013.12.20.

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	اوسکر	[āskar]	oscar	Oskar
2.	فلش پروگرام	[felsh prōgram]	flash program	programmani saqllovchi xotira
3.	کانال	[kānāl]	canal	kanal
4.	ویدیو	[videō]	video	video
5.	پروڈیوسر	[pradyūser]	producer	prodyuser
6.	میدیا	[mediā]	media	mediya
7.	ریکارڈ	[rekārd]	record	rekord
8.	نیوز نایت	[nevz nāit]	news night	kechki yangiliklar
9.	گوگل پلس	[gūgəl plas]	Google puls	Gugl plyus
10.	فیسبوک	[fesbūk]	Facebook	Feysbuk

Quyida ularga misollar:

سر کال امریکایی هدایتکار سٹیون سپیلبرگ د منصفہ پلاوي مشر و، چې د لایف اف پای، نومي فلم هدایتکار اینګ لي، اوسکر جایزه گټونکي نکول کیمین او کرسټوف والتزی مرستیالي کوله²⁵.

Joriy yilda amerikalik rejissor Stevn Spelberg hay'at raisi bo'ladi va unga "Umr so'ngi" nomli filmning rejissori Engli, Oskar mukofoti egasi Nikol Kidmen va Kristof Volter yordam beradi.

که غواړئ خپله په زړه پورې ویدیو، غږ یا عکس له **گوگل پلس** انټرنیټ پانې څخه خپور کړئ نو په پانه کې د درکړل شوي فورمې په کارولو سره په ډیره اسانې رالیرلی شئ²⁶.

Agar xohlasangiz o'zingiz yoqtirgan video, eshittirish yoki suratni Gugl plyus internet sahifasiga joyashtiring yoki sahifadagi joylashtirilgan shunday shakllarni boshqalarga jo'nating.

Abbreviaturalar:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	اېف بي آی	[ef bi ay]	FBI	FQB

²⁵Afgannews.com 2013.10.28

²⁶Pashto news.com

2.	یونیسف	[yūnesəf]	UNEF	YUNEF
3.	تی پی آی	[ti pi ay]	TPI	TPI
4.	سی آی آی	[si ay ay]	CIA	MRB
5.	پی بی سی	[pi bi si]	PBS	PBS
6.	ای بی سی	[ay bi si]	IBS	IBS
7.	بی بی سی	[bi bi si]	BBC	BBS
8.	ناتو	[natō]	NATO	NATO

Quyida ularga misollar:

د ناتو بلاک د منځنۍ اسیا په اړه نوی نوبت وړاندې کړی دی.²⁷

NATO bloki Markaziy Osiyo bo 'yicha yangi bayonnomani e'lon qildi.

په امریکا کې د فدرالي پلټنو څانګې (اېف بی آی) مشر روبرټ مولر د القاعدې یوې توطیې په

اړه²⁸..

Amerika Federal Qidiruv Buyrosi (FQB) boshlig'i Robert Myuller Al-qoidaning bir jinoyati haqida ...

خو د اوباما ادارې اعلان وکړه چې هیله منه ده د پټې جګړې مقیاس د بیپیلوټه الوتکو په وسیله چې

سیایای یی په پاکستان کې برمخ بیای، کم کړی.²⁹

Obama hukumati MRB ning Pokistonda olib borayotgan yashirin urushlari miqyosini uchuvchisiz boshqariladigan samolyotlar vositasida kamaytirishga umid qilishini e'lon qildi.

Harbiy terminlar:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	پاراشوت	[pārāshūt]	parachute	parashut
2.	تروپ	[trūp]	troop	guruh
3.	موټرلرونکی ³⁰	[mōtařlarūnkay]	motorized	motorli (piyoda)
4.	کومانډو	[kōmāndō]	commando	kommando (maxsus guruh)
5.	ډیویزیون	[divizyūn]	division	diviziya

²⁷ Afganistan.ru 2014.04.23

²⁸ Afganistan.ru 2010.10.03

²⁹ BBC.com 2013.05.20

³⁰ Normatov Z. "O'zbekcha-pushtucha so'zlashgich" Toshkent-2009 89-b.

6.	مژور	[majōr]	major	mayor
7.	رنژير	[renjer]	ranger	renjer (maxsus guruh)
8.	همور	[hamver]	hummer	hamver
9.	بې پيلوټ	[be pilōt]	without pilot	uchuvchisiz
10.	فيلډ مارشال	[feld mārshāl]	field marshal	feld marshal

Quyida ularga misollar:

د روسیې د «اویاخیوني اباروداوانی» نومې کمپنۍ په بهرنیو حالاتو کې د دیسانتولو لپاره نوی پاراشوت راوبستلی او وړاندې کړی دی.³¹

Rossiyaning “Aviatsiya Oborodovane” nomli kompaniyasi favqulodda holatlarda desantlar uchun yaratgan yangi **parashutni** namoyish etdi.

د دغه اعتصاب کونکیو شمیره چې ۲۸۳ تنو ته رسیږي د یوې بیړۍ په واسطه لیردول کیدل چې د استریلیا نۍ پولیسو لخوا ونیول شول او د نوموړی تنو یوه کمپ ته لیردول شول.³²

Avstraliya **politsiyasi** tomonidan qo‘lga olingan ushbu namoyishchilar soni 283 kishiga yetadi va mazkur shaxslar kema vositasida bir oromgohga jo‘natildi.

Yuqoridagi sohalaridan tashqari jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilm-fan va boshqa sohalariga oid termin va so‘zlar o‘zlashgan. Quyida ularga doir misollar:

Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so‘zlar:

Matbuot:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
1.	ایډیشن	[edishin]	edition	nashr
2.	اندکس	[indeks]	index	indeks
3.	نیوز نایت	[nivz nāyt]	news night	kechki yangiliklar
4.	پوست	[pōst]	post	pochta
5.	وېبپانه	[vebpāna]	webpage	veb sahifa
6.	سایت	[sāyt]	website	vebsayt
7.	اجنت ، اژنت	[ajent, ajent]	agent	matbuot agenti

³¹pashto.ruvr.ru 2013.10.25.

³²Afganistan.ru 2011.11.28.

8.	کاربن پیپر	[kārban pepar]	carbon paper	nusxa ko‘chirilgan qog‘oz
9.	کاپی	[cāpi]	copy	ko‘chirma, nusxa
10.	دېکته کول	[dikta kavəl]	dictate	so‘zma so‘z o‘qimoq

Quyida ularga misollar:

ددې خپرونې ټول حقوق له افغانستان رو سايټ سره خوندي دی³³.

Ushbu ma‘lumotlarning barcha huquqlari Afg‘oniston.ru veb saytiga tegishlidir.

شرنگ وېبپاڼه تېر کال دکوچني اخترپه لومړۍ ورځ پرليکه او دادی يو کلن منزل يې بشپړکړ.³⁴

Shrang veb sahifasi o‘tgan yili kichik bayramining birinchi kuni yozildi va bunga bir yil bo‘ldi.

Musiq:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
1.	اکاردیون	[akārdyūn]	accordion	akkordion
2.	کلارنیټ	[klārnet]	clarinet	klarnet
3.	کنسرت	[kansert]	concert	konsert
4.	گیتار	[gitār]	guitar	gitara
5.	جاز	[jāz]	jazz	jaz
6.	میکروفون	[mikrōfūn]	microphone	mikrafon
7.	پیانو	[piānō]	piano	pianino
8.	فیستوال	[festivāl]	festival	festival

Quyida ularga misollar:

سبنا لس کلنه ده، چې سندري وايي، پیانو غري او تازه تازه يې نڅاه هم زده کړې ده³⁵.

O‘n yoshli Sabno qo‘shiq aytadi, pianino chaladi va yangidan yangi raqslarni ham o‘rgangan.

³³Afganistan.ru 2013.11.28

³⁴shrang.com 2010.09.26

³⁵Afgannews.com 2013.11.29

دغه ايراني فلم جوړوونکي غوښتل چې د ونيز په سنيمايي نندارتون کې د "اکارډيون" په نامه د لنډ فلم د ليدو لپاره له ايران څخه سفر وکړي.³⁶

Mazkur Eron filmining yaratuvchilari haftalik **filmlar** namoyishida "Akkordion" nomli qisqa metrajli filmni namoyish etish uchun Erondan xorijga safar qilishdi.

Kulinariya:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	بسکیت، بسکوت	[biskiṭ, biskūt]	biscuit	biskuit
2.	کافی	[kāfe]	cofe	qahva
3.	کفتیریا	[kāfteriā]	cafeteria	kafeteriy
4.	کیک	[kek]	cake	tort
5.	الکول	[alkaōl]	alcohol	1.alkogol 2.alkogolli ichimliklar
6.	بوتل	[bōtal]	bottle	shisha
7.	براندی	[brāndi]	brandy	brendi
8.	بوفی	[bufe]	buffet	bufet

Mato va kiyim-kechak:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	جمپر	[jampər]	jumper	jenfer
2.	جاکت	[jākat]	jacket	1)jaket,kurtka; 2)kofta,mato
3.	فارم	[fārm]	form	forma (kiyim)
4.	نکتایي	[nektāyi]	necktie	bo'yinbog',galstuk
5.	بلیزر	[blezar]	blazer	bleyzer
6.	بلوز	[bluz]	blouse	kofta
7.	کوبای پتلون	[kavbāyi patlun]	jeans	jinsi shim

³⁶Hewad.com 2012.03.17

O'lov birliklari:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	يارد	[yārd]	yard	yard
2.	ايكر	[ekr]	acre	akr (yer o'lov birligi 0.4 ga)
3.	سكتور	[sektōr]	sector	sektor
4.	مليارد	[milyārd]	milliard	milliard
5.	نمبر	[nambar]	number	raqam
6.	متر	[metr]	metre	metr
7.	هكتار	[hiktār]	hectare	hektar
8.	كيلوگرام	[kilōgrām]	kilogram	kilogram

Quyida ularga misollar:

په ۷۴ كيلوگرام وزن كى د صنم تيم لوبغاري فرهاد منتظريانى د نشتوالي له آمله د نفت ذخيره فرهنگي تيم لوبغاري ايمان بهرامني لوبه وكړه³⁷.

74 **kilogram** vaznda Sanom jamoasi kurashchisi Farhod Muntaziriyoni yo'qligi uchun Yevropa Neft Zaxirasi jamoasi kurashchisi Iymon Bahromniy kurashdi.

Savdo ishlari va pul birliklari:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	پروف	[prūf]	proof	sof foyda
2.	کريديت کارډ	[kredit kārḍ]	credit card	kredit kartochkasi
3.	بانک	[bānk]	bank	bank
4.	بودجه	[būddja]	budget	budget
5.	ډالر	[dāllar]	dollar	dollar
6.	بانکي نوټ	[bānkinūt]	banknote	banknot
7.	کريديت	[kredit]	credit	kredit
8.	کوپون	[kūpōn]	coupon	kupon

³⁷Afganistan.ru 2010.02.24

Siyosatga oid soʻzlar:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
1.	ديموکراسی	[demōkrāsi]	democracy	demokratiya
2.	ایديالیزم	[idiālizm]	idealism	idealism, yuksak axloqiy ideallarga tarafdorlik, sodiqlik
3.	چیرمین	[chermen]	chairman	rais
4.	فدرال	[fedrāl]	federal	federal
5.	ویټو	[vetō]	veto	veto
6.	هید ماستر	[heḍ māstər]	head master	director
7.	ډائریکټر	[dāyrektōr]	director	direktor
8.	انارشيسټ	[anārʃist]	anarchist	anarxist

Ilmiy va texnik terminologiya leksikasi:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
1.	میکانیزم	[mekānizm]	mechanism	mexanizm, qurilma
2.	بیالوژیکی	[byālōjiki]	biological	biologik, biologiyaga oid
3.	اکسیجن	[āksijn]	oxygen	kislorod
4.	انرژی	[enerji]	energy	energiya
5.	سلندر	[silindr]	cylinder	silindr
6.	ترانسپورت	[trānsōrt]	transport	transport
7.	واټ	[vāt]	watt	vatt
8.	کمپیوټر	[kampyūtar]	computer	kompyuter
9.	سمینټ	[sement]	cement	sement
10.	گرانیت	[grānit]	granite	granit

Quyida ularga misollar:

سبنا هيله لري، چې د موسيقۍ ترڅنگ کمپيوټر ساينس ولولي او غواړي له همدې لارې افغانستان ته خدمت وکړي.

*Sabno musiqa bilan birgalikda **kompyuter** kursini o'qishni davom ettirmoqda va shu yo'l orqali Afg'onistonga xizmat qilmoqchi.*

Yuqorida keltirilgan misollar va kuzatuvlarga tayangan holda pushtu tiliga ingliz tilidan kirgan o'zlashmalar haqida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Dastlabki davrlarda, ya'ni XIX asr boshlarida pushtu tiliga inglizcha o'zlashmalarning kirib kelishida hind tili vositachi til vazifasini o'tagan. Bunga sabab, mazkur davrda Hindiston hududida inglizlar ta'siri ortayotganligidir.
2. Pushtu tili leksikasini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Mazkur ish ingliz mustamlakachilik siyosati natijasida vujudga kelgan.
3. Hozirgi kunda Afg'onistonda ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida pushtu tiliga ingliz tilidan ko'plab yangi o'zlashmalar hind tili orqali emas, balki tog'ridan tog'ri kirib kelmoqda.
4. Pushtu tiliga inglizcha o'zlashmalarni kirib kelishi 2 bosqichga bo'linadi: 1970-2000-yillar va 2001-yildan keyingi davr.
5. Birinchi bosqichda ijtimoiy-siyosiy sohaning madaniyat, o'rin-joy nomlari va sportga oid so'z va terminlar soni ko'proq qismni tashkil etadi.
6. Ikkinchi bosqichda fan-texnika yutuqlari, harbiy terminlar va abbreviatsiyalar soni ko'proq qismni tashkil etadi.

II bob. Ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarning grammatik xususiyatlari

Misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlar pushtu tilining imlo va talaffuzi qoidalarini ta‘sirida ma‘lum darajada adaptatsiya jarayonini boshidan kechirgan. Ular, avvalo, ingliz tilining orfografik va orfoepik qonun-qoidalariga moslashgan va pushtu tiliga o‘zlashgandan so‘ng, mazkur tilning ta‘sirida muayyan yozilish va aytilish shaklini olgan. Bu jarayon diaxronik va sinxronik nuqtai nazardan o‘rganilsa, mazkur o‘zlashmalar pushtu tili lug‘at tarkibiga kirib kelish jarayonida, ayniqsa, uning dastlabki davrlarida so‘zlashuv tilidagi shaklida yozuvga qabul qilinganligi ma‘lum bo‘ladi.

2.1. O‘zlashmalarning fonetik moslashuvi

Har qanday tilda o‘zlashgan begona til unsurlari, yangi til muhitida, uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan kechiradi. Bu moslashuv jarayoni til sistemasining turli tarkibiy bosqichlarida amalga oshadi. Odatda begona so‘z yangi til muhitida, fonetik, grafik, ma‘noviy, grammatik va uslubiy bosqichlarda moslashuv jarayonini boshdan kechiradi.

Pushtu tiliga inglizcha o‘zlashmalar o‘zlashish usuliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

a) Yozma nutqda qanday ko‘rinishda bo‘lsa, shunday shaklda o‘zlashadi. Lekin ushbu holatda o‘zlashma pushtu tili fonetikasining katta ta‘siriga uchraydi. Mazkur usul inglizcha o‘zlashmalarning pushtu tiliga kirib kelishining ikkinchi bosqichida o‘zlashgan o‘zlashmalar orasida ko‘pchilik qismni tashkil etadi. Fikrimizcha, til qanchalik rivojlansa, boshqa tillar bilan ko‘proq aloqada bo‘lsa, yozma nutqdagi farqlar yo‘qolib boraveradi, ammo buning natijasida fonetik tafovut ortib boraveradi. Misollar yordamida fikrimizni to‘laroq bayon etamiz: “*Ommaviy axborot vositalari*” ma‘nosini anglatuvchi ingliz tilidagi “media” so‘zi pushtu tiliga ميديا [medyā] shaklida o‘zlasgan. So‘zdagi **i** harfi (qisqa i tovushi) yozuvda “**sarganda yā**” ko‘rinishida aks etsa ham, talaffuzda [ye] shaklida aytiladi. So‘zning oxirgi harfi **a** (qisqa a tovushi) pushtu tilida odatda so‘z so‘ngida kelganida cho‘ziq [ā] ga o‘zgaradi. “*Pul va qimmatbaho buyumlar saqlanadigan muassasa*” ma‘nosini bildiruvchi inglizcha “bank” so‘zi pushtu tiliga بانک [bānk]

ko‘rinishida o‘zlashgan. So‘z tarkibidagi barcha harflar pushtu tili yozma nutqida aks etgan, talaffuzda qisqa [a] cho‘ziq [ā] tarzida o‘zlashgan.

b) Og‘zaki nutq orqali o‘zlashish. Mazkur usulda o‘zlashgan so‘zlar ingliz tili fonetikasi qoidalariga amal qilgan holda, ya’ni qay holatda talaffuz etilsa, shu holatda pushtu tili yozma nutqida aks etadi. Ushbu usul inglizcha o‘zlashmalarning aksariyat qismini tashkil etadi. Misol uchun “*madaniyat*” ma’nosini anglatuvchi culture so‘zi pushtu tiliga کلچر [kalchar] shaklida o‘zlashgan. Ushbu so‘z orfografiyasidagi o‘zgarish katta bo‘lsa-da, uning talaffuz shakli bilan pushtu tilidagi ham yozma nutq, ham og‘zaki nutq o‘rtasidagi farq unchalik ko‘zga tashlanmaydi.

Ingliz tilidagi so‘zlar va ular tarkibidagi harf va tovushlarning pushtu tili fonetikasi, orfografiyasi va leksikasida aks etishiga doir kuzatuvlar:

1. Ko‘p holatlarda so‘zlar og‘zaki nutq shaklida o‘zlashgani uchun, odatda xorijiy til orfografiyasining ta’siri sezilmaydi. Faqat so‘zning fonetik qiyofasi tiklanadi. Lekin, ba’zida istisnalar mavjud: ورکشاپ [varkshāp] (inglizcha, workshop) “*korxona*”, سویچبورد [svichbōrd] “*viklyuchatel*” (inglizcha, sweech board), مارکیٹ [mārkiṭ] “*bozor*” (inglizcha, market) va boshqalar (ingliz tilida r tovushi talaffuz etilmaydi). Bu so‘zlarni pushtu tiliga **yoзма nutq orqali** kirib kelgan deb faraz qilish mumkin.

2. Yangi o‘zlashmalar bir tildan ikkinchi bir tilga o‘zlashar ekan, ular shu til normalariga mos keladigan shaklda o‘zlashtirilishi, fonetik moslashuv va o‘zgarishlarga uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, pushtu tiliga o‘zlashgan so‘zlar pushtu tilining fonetik ta’siriga uchraydi va pushtu tili tovush tizimiga mos shaklda qabul qilingan holatiga duch kelamiz: ایڈیشن [ēdishin] “*nashr*” (inglizcha, edition), کمیشن [kamishin] “*komissiya*” (inglizcha, commission), بانک [bānk] “*bank*” (inglizcha, bank), تانک [tānk] “*harbiy tank*” (inglizcha, tank), ترافیک [trāfik] “*yo‘l-transport harakati*” (inglizcha, traffic), نمبر [nambar] “*raqam*” (inglizcha, number).

3. Ba’zi bir so‘zlarda so‘z boshidagi undoshlardan keyin yoki oldin [i] unlisi qo‘yiladi, bu holat dariy (forsi-ye kobuliy) tilining aynan ta’siri bilan izohlanadi: pushtu tilida fors tilidagi kabi so‘zlar qator kelgan ikki va bir necha undoshlar

bilan boshlanmaydi³⁸: اسکلیت [eskelet] “sklet” (inglizcha, skeleton), گلاس [gelās] “shisha idish, stakan” (inglizcha, glass).

4. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi *d* va *t* til-tish tovushlari pushtu tilida retrofleks [ɖ] va [ʈ] tovushlariga aylanadi va yozuvda serebral ڊ va ټ harflari orqali yoziladi: فوټبال [fūtbāl] “futbol” (inglizcha “football”), ډرامه [drāma] “drama, p’yesa” (inglizcha “drama”), هوټل [hōtal] “mehmonxona” (inglizcha “hotel”), راکيټ [rāket] “raketa” (inglizcha “rocket”), ټونل [tūnel] “tunnel, yer osti yo’li” (inglizcha “tunnel”).

ټولو هیوادونو د غونډې په ترڅ کی خپل د فوټبال فدراسیونونو راپورونه وړاندې کړل.

Barcha mamlakatlarning a’zolari navbat bilan o’zlarining Futbol Federatsiyasi raportlarini taqdim etishdi.

Bu qoidadan istisno holatlarning uchrashi (sodda “d”, “t” tovushlari bilan yozilishi yoki u va bu shakldagi ikki xil yozilishi) retrofleks tovushlari mavjud bo’lmagan forsi-ye kobuliy tilining ta’siri natijasidir. Qiyoslang: دوکتور [dāktar] “doktor (ilmiy unvon)”.

د ۱۳۷۰ هـ ش کال دورې په لومړۍ هفته کی د ښوونۍ او روزنۍ وزارت د هغه وختني معین سر محقق دوکتور عبدالحکیم هلالی له دفتره ما ته هم خبر راکړ شو چی د ښوونۍ او روزنۍ وزارت له خواه د یوه ارواښاد کانديد اکادميسين سر محقق محمد صديق روهي او کانديد اکادميسين پوهاند دوکتور محمد رحيم الهام ناست وو³⁹.

1370- hijriy shamsiy yilning birinchi haftasida, Ta’lim va Maorif vazirining o’sha vaqtdagi yordamchisi olim doktor Abdulhakim Hiloliyning menga xabar berishicha, Ta’lim va Maorif vazirligi tomonidan akademiya olimlari fan nomzodi Siddiq Ruhiy va fan doktori Muhammad Rahimga ishonch bildirilgan edi.

5. Ingliz tilidagi *s* harfi so‘z o‘rtasi va oxirida kelganda ko‘pchilik holatlarda [z] tarzida talaffuz etiladi: news [nju:z], design [dizain], visa [vi:zə] va h.k. Ushbu so‘zlar pushtu tiliga o‘zlashganda so‘z tarkibidagi *s* harfi talaffuzdagi [z] tovushi shaklida ham og‘zaki va ham yozma nutqda aks etadi: نیوز [njuz]

³⁸ Ular orasiga qisqa [i] tovushini anglatadigan zvarakay qo’yiladi.

³⁹ ص-۱۶۰ د ټولنپوهنې مقدماتی کورس. کابل-۱۳۶۴

“yangilik” (inglizcha “news”), دیزاین [dizāin] “dizayn” (inglizcha “design”), ویزه [viza] “viza” (inglizcha “viza”).

6. Ingliz tilidagi yana bir ot yasovchi qo‘shimcha **-tion** [ʃn] tarzida talaffuz etiladi: convention [kən'venʃn], federation [fedə'reiʃn], opposition [ɒpə'ziʃn] va h. k. Mazkur so‘zlar pushtu tilida [sjun] va [ʃn] tarzida talaffuz etiladi va yozma nutqda ham xuddi shunday qayd etiladi: کنوانسیون [kanvānsjun] “konventsiya” (inglizcha “convention”), فدراسیون [federāsjun] “federatsiya” (inglizcha “federation”), اپوزیسیون [apozisjun] “muxolif” (inglizcha “opposition”) ba’zi shevalarda⁴⁰ [apozishin]. Misol:

د فوٹبال فدراسیونونو راپورونه ...

Futbol Federatsiyasi raportlari ...

7. Ingliz tilida **r** harfi so‘z o‘rtasida kelganda undan oldin qisqa [a] va [e] unli harflari va undan so‘ng undosh harf kelsa ushbu harf talaffuz etilmaydi: market [ma:kit] “bozor”, report [ri'pɒt] “raport, hisobot”, artist [a:tist] “san’atkor”, apartment [ə'pa:tmənt] “xona, kvartira” va h.k. Mazkur so‘zlar pushtu tiliga o‘zlashganda so‘z tarkibidagi **r** harfi aksariyat hollarda og‘zaki va yozma nutqda aks etadi, lekin ba’zi so‘zlar imlosida ushbu harf uchramaydi. Bunga mazkur inglizcha so‘zlarning yuqorida aytib o‘tganimizdek ikki xil usul, ya’ni og‘zaki va yozma usul orqali o‘zlashishini sabab qilib keltirishimiz mumkin:

Yozma usul orqali: مارکیٹ [mārket], آرٹسٹ [ārtist]

Og‘zaki usul orqali: راپوت [rāpɒt], اپاتمان [āpātmān]

9. “Sarganda yā” ي [i] harfi orqali i [ai] harfi ifodalansa yozma nutq orqali so‘z o‘zlashgan hisoblanadi: virus [vaiəɾəs] “virus, bakteriya” so‘zi pushtu tilida ویروس [virus] shaklida o‘zlashgan. Ushbu so‘zdagi “sarganda yā” ingliz tilidagi i [ai] harfini ifodalamoqda.

10. alif harfi va “sāda yā” ی harfi bilan birgalikda [ay] digtongi orqali ingliz tilidagi i [ai] harfini ifodalaydi: IBC [ai bi si] ای بی سی [ay bi si] CIA [si ai ai] سی ای ای [si ay ay], TPI [ti pi ay] تی پی ای [ti pi ay]. Mazkur so‘zlar pushtu tiliga og‘zaki nutq orqali o‘zlashgan.

⁴⁰ Peshavor va Kvetta shevasida.

11. O‘zlashmalarning fonetik qiyofasini ifodalashda ba’zi bir unli va undosh tovushlarning o‘rin almashuv qonuniyati ko‘zga tashlanadi. Urg‘u tushmaydigan *a*, *e* tovushlari pushtu tilidan til o‘rta zvarakay [ə]⁴¹ maxsus tovushiga o‘tadi.

Misol: Germany [Jérmany] → [Jərməni] “Germaniya”, [Argentine] (ardzentain) → [Arjəntāyn] “Argentina”, artist [a:tist] → [ārtəst] “san’atkor”, regime [ri:dzm] → [rəjm, riʃim] “rejim”;

مور و لیدل چی د ۱۳۷۱ ه ش کال په غویه (ثور) کی د دوکتور نجیب الله رژیم نسکور شو⁴².

Biz 1371-hijriy shamsiy yilning savr oyida doktor Najibullo tuzumi qulaganining guvohi bo‘ldik.

12. Ko‘pchilik hollarda sodda so‘zlar o‘zlashadi, ya’ni qo‘shma so‘zlarda tarkibiy qismlaridan biri (odatda, ikkinchisi) tushirib qoldiriladi: ingliz tilidagi **steering-weel** “rul (mashinaning ruli)” so‘zi ستیرنگ [stiring] shaklida, **type-writer** “yozuv mashinkasi” so‘zi تایپ [tāyp] shaklida, **motor-car** “avtomobil” so‘zi موٹر [mōtar] shaklida, **railway** “temir yo‘l” so‘zi ریل [rel] shaklida, **overcoat** “palto” (birinchi bo‘lagi tushirib qoldirilgan) so‘zi کوٹ [kōt] shaklida, **website** “vebsayt” so‘zi سایت [sāyt] shaklida pushtu tiliga o‘zlashgan. Misol:

مهرباني وکړئ، ماته د دوشنبې ورځ د پاره یو د ریل ټیکټ سپارښت وکړئ.

Itimos, menga dushanba kuni poyezd uchun bitta chipta buyuring.

13. Hozirgi Afg‘onistonda pushtu adabiy tilining me’yorlarini ishlab chiqish jarayoni oxirigacha etmagan, bu narsa uning ba’zi bir tarmoqlari va lahjalaridagi fonetik farqlarda aniq seziladi, bu o‘zlashmalarda o‘z aksini topmay qolmasligi mumkin emas edi: o‘zlashmalar u yoki bu lahjaning fonetik modeliga moslashadi va bu narsa aynan bir so‘zning turlicha fonetik variantlari kelib chiqishiga olib keladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Afg‘onistonning Qandahor va Nimro‘z viloyatlarida yashaydigan pushtunlar ba’zi so‘zlar tarkibidagi [sh] tovushini [se] tarzida, [be] tovushini [pe] tarzda talaffuz etadilar va bu holat yozma nutqda ham aks etadi. Ingliz tilida fe’llarga va ba’zi holatlarda sifatlarga qo‘shilib ot yasovchi qo‘shimcha **-sion** talaffuzda [ʃn] va [ʒn] shaklida uchraydi: commission [kə'miʃn],

⁴¹ Ba’zi bir shaxslarning talaffuzida ə belgisi a variantiga ega bo‘lib, bu hodisa jərməni, arjəntāyn va shunga o‘xshash pushtu tilidagi so‘zlarda uchraydi.

⁴² ص-۱۴ د ټولنپوهنې مقدماتی کورس. کابل-۱۳۶۴

television [televizn] va h.k. Mazkur soʻzlar pushtu tili leksikasiga oʻzlashganda soʻz tarkibidagi **-sion** qoʻshimchasi [zjun], [zjān], [shin] va [sijun] shaklda talaffuz etiladi va eng qiziqarlisi yozma nutqda ham aks etadi: کمیشیون [kamiʃn], کمیسون [kamisijun], تیلویزیون [televizjun] va [tilivizjān], گریب [grib] soʻzini گریپ [grip] shaklida.

د یونیورسټي گرانټس کمیټن د چیرمین په حیث پروفیسر پریشان خټک صیب ډیر په فراغ زړه
دا منصوبه منظوره کړې وه.⁴³

Professor Parishon Xatak janob ushbu ishni universitet grantlar komissiyasi raisi sifatida matonat bilan taqdim etdi.

کمیسیون د استاد د روحي پر پیشنهاد تر هر اړخیز غور وروسته فیصله وکړه.⁴⁴

Komissiya ustoz Ruhii taklifini har tarafdin chuqur oʻrganishga qaror qildi.

Lahjalardagi farq oʻzlashmalardan foydalanish darajasida ham koʻzga tashlanadi. Bunga misol qilib Peshovar shevasida inglizcha oʻzlashmalar boshqa shevalarga qaraganda koʻproq uchraydi.

Peshovar shevasi	Adabiy til
مینټ [minət]	دقیقه [daqiqā]
کپټان [kaptān]	رئیس [rais]
کلاسیک [klāssik]	لرغونی [largʻunay]
فلالوژی [filālodji]	ژبپوهنه [djəbpohəna]

Ushbu holatni quyidagi sabablar bilan izohlaymiz:

1. Pokistonda ingliz tiliga davlat tili maqomi berilganligini⁴⁵.
2. Dunyo boʻylab tarqalib ketgan pushtun muhojirlarining aksariyati Peshovar shevasida soʻzlashishi va shu shevada ijod qilishi.
3. Koʻplab Yevropa va ingliz tilidagi badiiy va ilmiy asarlarning ushbu shevada tarjima qilinganligi.

14. Pushtu tilidagi matnlarni koʻzdan kechirish vaqtida quyidagi qiziqarli fikr paydo boʻldi. Gap shundaki, pushtu tilida jumla tarkibidagi uyushiq boʻlaklarning

⁴³ Koʻrsatilgan manba, b-10.

⁴⁴ Koʻrsatigan manba, b-10.

⁴⁵ Pokistonda davlat tili 2 ta: urdu va ingliz.

berilishi imlo qoidasi ingliz tilidagi tartib bilan bir xil. Ya'ni, jumla tarkibidagi barcha uyushiq bo'laklar **vergul** belgisi yordamida bir-biridan ajratilib yozilib, so'nggi uyushiq bo'lak oldidan ham **vergul** belgisi qo'yiladi hamda undan so'ng **او** [av] **va** teng bog'lovchisi qo'yiladi:

...د نويو ژانرونو لکه د ناول، لنډې کيسې، طنز، تکل، ډرامې، او فلمي سناريو د رواجيدلو او

باييدلو سره پيليري...⁴⁶

Yangi janrlardan **novella, hikoya, pamflet, latifa, drama va film senariysi** kabilar yaratila boshlandi.

د ځينو په نظر مولوي احمد، قاضي مير احمدشاه رضواني، او منشي احمدجان د معاصر ادب سر

لاري دي.⁴⁷

Ba'zilar fikricha **Mavlaviy Ahmad, Qozi Mirahmadshoh Rizvoni** va **Munshiy Ahmadjon** zamonaviy adabiyot yaratuvchilaridir.

Mazkur ikki jumladagi **uyushiq bo'laklarning** so'ngisining oldidan ham **vergul** belgisi bor va undan keyin esa, **va teng bog'lovchi** oxirgi uyushiq bo'lak oldidan qo'yilgan.

Shunday qilib, to'la asos bilan ta'kidlash mumkinki, pushtu tilidagi aynan bir fonemaning turli variantlari mavjudligi, birinchidan, pushtu tilining adabiy me'yorlarini turg'un emasligi bilan, ikkinchidan esa forsiy kobuliy tili bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarida bo'lishi bilan izohlanadi.

Yuqorida keltirilgan misollar va kuzatuvlarga tayangan holda pushtu tiliga ingliz tilidan kirgan o'zlashmalar haqida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Pushtu tiliga inglizcha o'zlashmalar asosan 2 xil usulda o'zlashadi:

yozma nutq orqali;

og'zaki nutq orqali.

Yozma nutq orqali o'zlashgan so'zlar talaffuzida og'zaki nutq orqali o'zlashgan so'zlarga qaraganda katta farq vujudga keladi.

⁴⁶ Pushtunxvo zamonaviy adabiyotiga bir nazar. 2000-y Kobul. 220-b.

⁴⁷ O'sha manba 220-b.

2. Ba'zi bir so'zlarda so'z tarkibidagi undoshlardan keyin yoki oldin [i] unlisi qo'yiladi, bu holat dariy (forsi-ye kobuliy) tilining aynan ta'siri bilan izohlanadi.
3. Ingliz tilidagi d va t til-tish tovushlari pushtu tilida serebral د va ت harflari orqali yoziladi.
4. Pushtu adabiy tili me'yorlarini ishlab chiqish hozirgacha nihoyasiga yetmaganligi sababli inglizcha o'zlashmalarning tilda qo'llanishi va talaffuzida shevalarda tafovutlar mavjud.
5. O'zlashmalar bilan bir qatorda uyushiq bo'laklarga doir imlo qoidasi ham o'zlashgani ham kuzatiladi.
6. Ingliz tilidan pushtu tiliga o'zlashgan so'zlar tarkibidagi **i** [ai], **c** [si], **r** [a] va **s** [es] harf va tovushlarining, **-sion** va **-tion** qo'shimchalarini pushtu tili fonetikasi va orfografiyasi qoidalariga moslashishi turli shakllarda kuzatiladi.
7. Pushtu tili alifbosidagi ا alif, و vov, ع "sāda" va ي "sarganda yā" harflarini inglizcha o'zlashmalar tarkibida yozma va og'zaki nutqda turli xil shakllarda ifodalanadi.
8. O'zlashmalar fonetik jihatdan ifodalanishda ba'zi bir unli va undosh tovushlarning o'rin almashuv qonuniyati ko'zga tashlandi.

2.2. O'zlashmalarning ma'no kengayishi va torayishi

Til rivojlanishi jarayonida so'zlarning ma'no kengayishi bilan ma'no torayishi jarayoni ham kuzatiladi. So'zlarda ma'no kengayishi, ba'zi bir ma'nolarning asl ma'nodan uzilib, omonimlar hosil qilishiga olib kelsa, ba'zida, bitta so'z qobig'ida bir-biriga zid ma'nolar - antonimlar vujudga kelishi ham kuzatiladi. Bu jarayonni pushtu tiliga o'zlashgan inglizcha o'zlashmalarda ham ko'rishimiz mumkin.

1. Ingliz tilidan kirgan bir so'zning ikkala ma'nosi ham pushtu tiliga o'zlashgan, lekin ushbu so'zning har ikki ma'nosi pushtu tili yozma nutqida ikki xil ko'rinishda : visa 1) xorijga chiqish uchun huquq 2) ruxsatnoma. Mazkur ikki ma'no umuman olganda bir narsani anglatga ham, lekin bu yerda subyekt va

obyekt masalasi bor. Subyekt huquq bo'lsa, obyekt ruxsatnomadir. Mana shu jihatdan visa so'zining pushtu tilida ikki xil ko'rinishini kuzatishimiz mumkin: ویزه xorijga chiqish huquqi, ya'ni subyekt, ویسالیك (to'g'ridan-to'g'ri tajimasi *viza qog'ozi, viza xati*) ruxsatnoma, ya'ni obyekt. Lekin aksariyat hollarda bu so'zning ikki xil shakli uning turli xil variantlari sifatida qayd etiladi⁴⁸. Misol:

ویسالیك له کومه خای څخه اخیستل کیږي؟

Viza(ruxsatnoma)ni qayerdan olish mumkin?

ممکنه ده چی د ویزه مده اوږدول شي؟

Viza muddatini uzaytirish mumkinmi?

Shunga o'xshash holatni دوکتور [doktor] "*doktor (ilmiy unvon)*" va دوکتور [dokter] "*shifokor*" so'zlarida ham ko'rishimiz mumkin. Misol:

ارواښاد کاندید اکادمیسین سر محقق محمد صدیق روھی او کاندید اکادمیسین پوهاند دوکتور

محمد رحیم الهام ناست وو.

... *akademiya olimlari fan nomzodi Siddiq Ruhiy va fan doktori Muhammad Rahimga ishonch bildirilgan edi.*

2. O'tgan asrdayoq pushtu tiliga inglizcha harbiy atamalar, jumladan, inglizcha harbiy unvonni ifodalovchi atamalar o'zlashtirilgan va hozirgi kunda ularda ma'no o'zgarishlari amalga oshib, arxaik so'zlar qatoridan o'rin olgan: کپتن [kapitan] ingliz tilida bu so'z "captain". Ushbu so'z semantik jihatdan ma'no kengayishiga uchrab "ofitser" ma'nosini kasb etgan. Mazkur so'zning semantik doirasi kengayishiga yana bir isbot shuki, u "*jamo'a sardori*" ma'nosini ham ifodalaydi. Hozirgi kunda ushbu کپتن [kapitan] so'zi uchramaydi, keyinchalik rasmiy tilda uni تورن⁴⁹ [tūrən] "*kapitan (harbiy unvon)*" so'zi siqib chiqargan bo'lsada, uning ma'nosi so'zlashuv tilida yanada kengaydi. Afg'onistonning ba'zi bir mintaqalarida "*mahalliy politsiya boshlig'i*" ma'nosida, qishloq maktablarida esa "*sinf sardori*" ma'nosida ishlatiladi. Misol:

د افغانستان کریکېټ د ټیم کپتن

Afg'oniston kriket jamoasi sardori ...

⁴⁸ English-Pushtu Dictionary. Pushtu Academy Kobul-1975. 730-b.

⁴⁹ O'zbekcha-pushtucha so'zlashgich. Normatov Zafar Toshkent-2009. 91-b.

3. Ma'no torayishiga esa ingliz tilidan o'zlashgan انرژی [enarji] (inglizcha, energy) "energiya" so'zi ingliz tilida "elektr toki, kuch-quvvat" ma'nosida ishlatilsa, pushtu tiliga faqat "elektr toki" ma'nosida o'zlashganini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Misol:

د اقتصاد وزیر ارغندبوال وویل دا ځل دواړو لوریو ټینگار کړی چې د انرژی، کورجوړونې، د سالنګونو رغاولو، کانونو، هوایی ترانسپورت، لوری زده کړو، فرهنګی او نورو برخو کی لاسلیک شوي تړونونه به عملی بڼه غوره کوي⁵⁰.

Iqtisod vaziri Arg'andbol dedi: "Bu safar ikkala tomon ham energiya, uy-joy qurilishi, Solang dovoni yo'li, konlar, havo transporti, oliy ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda imzolangan qarorlarni amalga oshirishda qattiylik ko'rsatdi.

4. Ba'zan ingliz tilidagi so'zning barcha ma'nosi pushtu tiliga o'zlashadi. Bunga inglizcha theatre 1) teatr binosi 2) tomosha so'zini keltirish mumkin. Ushbu so'znini birinchi ma'nosi o'rin-joy nomiga oid bo'lsa, ikkinchi ma'nosi ijtimoiy sohaning madaniyatga oid so'zidir. Misol:

د تياتر او سینما ترڅنګ چې شکسپیر خپل بنسټ بولي، لويديز شاعران او اديبان هم د هغه خلاقیت، ژبي او تخیل تر اغېز لاندې راغلي.

Shekspir teatr va kinoning asoschisi hisoblanadi, g'arb shoir va yozuvchilari ham uning ijodi, tili va fikrlarini juda qadrlaganlar.

په تياتر کی څو څوګي شته؟⁵¹

Teatrda necha o'rindiq bor?

Yuqorida keltirilgan misollar va kuzatuvlarga tayangan holda pushtu tiliga inglizcha o'zlashmalar haqida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Inglizcha o'zlashmalarda ma'no torayishi, barcha ma'nolar o'zlashish va ingliz tilidagi ba'zi bir so'zning ikki ma'nosi pushtu tiliga o'zlashganda ikki xil shaklda aks etadi.

2. Inglizcha ba'zi o'zlashmalarni arxaik so'zlar qatoriga tushib ulgurgan.

3. Ba'zi inglizcha o'zlashmalarning asosiy ma'nosi emas, balki yordamchi, ya'ni ikkinchi darajali ma'nosi o'zlashgan.

⁵⁰ Afganistan.ru 2010.08.03.

⁵¹ O'sha manba 50-bet.

III bob. Pushtu tili leksikasining rivojida ingliz tilidan kirgan o'zlashmalarning o'rni

Xalqaro aloqalarning kengaya borishi, globallashuv, fan, madaniyat, sanoat, siyosat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi ilg'or tajriba almashuvlar, dunyoning turli nuqtalaridan kelgan xabar va ma'lumotlarni har kim o'z ona tilida qayta ishlab chiqishi kabi obyektiv va zaruriy omillar tillar rivojiga, ularning lug'at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga barakali ta'sir qilmoqda. Ushbu ta'sir tilning barcha tomonlarida – fonetik tarkibida, morfologik va leksik-semantik tuzilishida, grammatik qurilishida o'z aksini topmoqda.

Yuqorida takidlaganimizdek, tildagi o'zgarish lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalq tarixida ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarish tufayli yangi so'zlar kirib keladi, ayrimlari chiqib ketadi. Boshqa tillardan farqli ravishda o'zlashmalarning kirib kelish holati pushtu tilida so'zlarning ekvivalentlarini ko'payishiga xizmat qimoqda.

Pushtu tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhimdir. Hozirgi pushtu tili lug'at tarkibining yarmini sof pushtucha so'zlar tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko'rmaganidek, pushtu tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlab boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. Pushtu tilining lug'at tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manba ham muhim rol o'ynaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarningturli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi tabiiy holdir. Bunday munosabat aloqada bo'lgan tillar rivojida, ayniqsa uning lug'at tarkibida ma'lum izlar qoldirishi mumkin. Shu sababli ham dunyodagi barcha tillar lug'at tarkibidagi, jumladan pushtu tilining lug'at tarkibidagi o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan ikki qonuniyat kuzatiladi: 1) eskini yangi bilan almashtirish; 2) boshqa tillardan so'z qabul qilish. Demak, pushtu tilining lug'at tarkibi o'z taraqqiyotida ikki manbaga tayanadi: a) ichki manba; b) tashqi manba.

Bir tildan boshqa tilga soʻzlarning kirishi va singishi shunchaki oddiy, mexanik jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bogʻliq qonuniyatdir. Tildan tilga soʻz oʻzlashishi uchun avvalo real sharoit lozim boʻladi.

Keyingi paytlarda pushtu tiliga Yevropa tillaridan bir qancha soʻzlar yangi tushunchalar bilan kirib keldi. Ayniqsa, ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar pushtu tili leksikasini boyishida salmoqli oʻrin egallaydi. Hozirgi zamon pushtu tili lugʻat tarkibining boyishida fan va texnika, ijtimoiy sohalarga oid oʻzlashmalar asosiy qismni tashkil etadi. Bu terminlarning aksariyat qismi ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlardir.

3.1. Oʻzlashmalar ishtirokida soʻz yasalishi

Pushtu tili leksikasining boyishida ingliz tilidan oʻzlashgan yasama soʻzlarning oʻrni ham beqiyos. Yasama soʻzlar soʻz yasalishining 1) affiksatsiya; 2) yarimaffiksatsiya; 3) kompozitsiya; 4) leksikalizatsiya usullari orqali yasaladi.

3.1.1. Affiksatsiya

Pushtu tilida affiksatsiya usuli bilan soʻz yasash asosiy usul hisoblanadi. Affiksatsiya usuli bilan soʻz yasash hodisasi bir necha tilshunoslar tomonidan oʻrganilib, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va soʻz yasalishining boshqa usullariga nisbatan kengroq yoritilgan⁵². Soʻz yasovchi affikslarning soʻz yasashdagi ishtirokiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ularning bir necha xususiyatlarga ega ekanligiga guvoh boʻlamiz. Baʼzi affikslar bir xil maʼnodagi soʻzlar yasaydi. Masalan: —ونکی [ūnkay⁵³] affiksi bilan koʻpincha shaxs otlari yasaladi:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
1.	اکارډیون وھونکی	[akārdiyun vahūnkay]	accordionist	akardiyonchi
2.	اکت کوونکی	[akt kavūnkay]	actor	aktyor

⁵² Normatov Z. “Pushtu tilidagi somatizmlar strukturasi va semantikasi tasnifi” MI, -2009 va “Pushtu tili leksikologiyasi” tuzuvchilar: A.Mannonov va A. Quronbekov. Toshkent, -2013.

⁵³ Aslida feʼllarga qoʻshilib, sifatdosh yasovchi qoʻshimcha hisoblanadi.

3.	دram ليكونكى	[drām likūnkay]	dramatist	dramaturg
4.	سكيت كوونكى	[skeɪ kavūnkay]	skater	sketchi
5.	تروميت غروونكى	[trumet ʔagūnkay]	trumpeter	trumfet chaluvchi
6.	كريدت وركوونكى	[kridet varkavūnkay]	creditor	kreditor
7.	پوسته رسوونكى	[pōsta rasavūnkay]	postman	pochtalyon
8.	البومين لرونكى	[albumin larūnkay]	albuminous	oqsil moddasiga oid, oqsilli

Quyida ularga misollar:

په يکشنبه ورځ کې د کريدت وركوونكيو مجلس آغاښ شو.

Yakshanba kuni kreditorlar majlisi boshlandi.

زه اکاردیون وهونکى یم.

Men akkardion chalaman.

Yana bir mahsuldor yasovchi qo‘shimcha bu [i] suffiksi bo‘lib, u asosan, pushtu tiliga xos bo‘lmagan, ya’ni o‘zlashma so‘zlarning ot so‘z turkumiga qo‘shilib, ulardan sifat so‘z turkumini yasaydi. Misol:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
1.	دېموکراتيکي	[demōkrātiki]	democratic	demokratik, demokratiyaga oid
2.	بيالوژيکي	[byālōjiki]	biological	biologik, biologiyaga oid
3.	الکولي	[alkōli]	alcoholic	alkogoli
4.	القلي	[alqali]	alkali	ishqorli
5.	اتموسفيري	[atmōsferi]	atmospheric	atmosferaga oid
6.	باروميترى	[bārōmetri]	barometeric	barometrik, barometrga oid
7.	دراماتيکي	[drāmātiki]	dramatic	dramatik, dramaga oid

Quyida ularga misollar:

Bundan tashqari pushtu tilida soʻzlashish asosiga old qoʻshimcha qoʻshish orqali soʻz yasaladi: بی پيلات [be pilāt] “*uchuvchisiz boshqariladigan samolyot*” (inglizcha, without).

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, pushtu tili leksikasi boyishida affiksatsiyaga doir quyidagi xulosalarga ega boʻldik:

1. Pushtu tilida affiksatsiya usuli bilan soʻz yasash asosiy usul hisoblanadi.
2. Oʻzlashmadan yasama soʻzlar hosil qilinish jarayonida esa affiksatsiyaning faqatgina ونکی [ūnkay] affiksi mahsuldir.
3. ونکی [ūnkay] affiksi bilan koʻpincha shaxs otlari yasaladi.
4. ي [i] suffiksi oʻzlashma soʻzlarning ot soʻz turkumiga qoʻshilib, ulardan sifat soʻz turkumini yasaydi.

3.1.2. Yarimaffiksatsiya

Pushtu tilida soʻz yasalishiga doir ishlarda yuqorida qayd etilgan usullar qatorida yarimaffiksatsiya usuli ham keltiriladi. Eron tilshunosligida mazkur usul affiksatsiya va kompozitsiya oraligʻidagi soʻz yasash tipiga birlashtiriladi. Oʻzbek tilidagi affiksoidlar (ular soʻz-affiks, affiks-soʻz deb ham yuritiladi) yarim affikslarga toʻgʻri keladi, biroq ular oʻzbek tilida juda kam uchraydi. Masalan:

-noma, -xona: choyxona, qabulxona, ruxsatnoma, tabriknoma.

Yarim affikslar haqida gap ketganda bu usul qatʼiy qoidaga ega emasligini koʻramiz. Yarimaffikslar deb hisoblanuvchi hozirgi zamon feʼl negizlari qoʻshma soʻzning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida ham qoraladi. Ular suffikslarga ham kiritiladi. Shuningdek, ular yasovchi asos sifatida qoʻllanishi mumkin.

Yarim affikslar (ot va feʼldan yasalgan soʻz morfemalari) maʼnosini yoʻqotgan, yoʻqotmaganligidan qatʼi nazar mustaqil soʻz sifatida alohida qoʻllanmaydi va morfemalashish jarayonidadir. Yarim affikslarning affikslardan farqi shundaki ular oʻz maʼnosini aniqroq saqlab qolgan boʻladi.

Pushtu tili soʻz yashalishida eng mahsuldor yarimaffikslar sifatida 3 ta yarimaffiks koʻrsatiladi⁵⁴: خای [dzāy] “joy, oʻrin”, تون [tun] “vatan, turar-joy”
 Misol: پوهنځی [pōhandzay] fakultet, درملتون [darmaltun] dorixona, ورکتون [vurktun] bolalar bogʻchasi va boshqalar. Koʻrib turganingizdek mazkur uchala yarimaffikslar joy nomini yasash uchun qoʻllaniladi. Lekin eng asosiysi shundaki, ushbu yarimaffikslar orqali yasalgan oʻzlashma soʻz uchratmadik.

Ammo shunga qaramay, oʻzlashma soʻzlar orqali kam mahsuldor boʻlgan خانه [xāna] yarimaffiksi orqali yasalgan atigi bir nechta soʻzni topdik: پوسته خانه [pōstaxāna] pochta, تېلېفون خانه [telefūnxāna] telefon stansiyasi. Ammo bu soʻzning oʻzi ham pushtu tiliga dariy tilidan oʻzlashgan. Misol:

په کوم وخت کښې پوسته خانه کار کوي؟⁵⁵

Qaysi soatlarda pochta ishlaydi ?

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, pushtu tili leksikasi boyishida yarimaffiksatsiyaga doir quyidagi xulosalarga ega boʻldik:

1. Pushtu tili leksikasida yarimaffikslar orqali yasalgan oʻzlashma soʻzlar juda kam miqdorda uchraydi va ular kam mahsuldor yarimaffikslar vositasida yasalgan.
2. Ular asosan, oʻrin-joy oti soʻzlarini yasaydi.

3.1.3. Kompozitsiya

Kompozitsiya usuli bilan qoʻshma soʻzlar yasaladi. Qoʻshma soʻz birdan ortiq mustaqil maʼnoli morfemadan tashkil topgan bir soʻzdir. U shu xususiyati bilan sodda soʻz va soʻz birikmasidan farqlanadi.

Qoʻshma soʻzning sodda soʻzdan farqi shundaki, sodda soʻzda mustaqil maʼnoli morfema bitta, qoʻshma soʻzda esa birdan ortiq boʻladi. Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli morfemadan tashkil topgan qoʻshma soʻzning biror komponenti hozirgi pushtu tilida mustaqil maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, bu qoʻshma soʻz qoʻshma soʻzlik xususiyatini yoʻqotadi sodda soʻzga aylanadi.

⁵⁴ Normatov Z. “Pushtu tilidagi somatizmlar strukturasi va semantikasi tasnifi” MI, 2009.

⁵⁵ Normatov Z. “Oʻzbekcha-pushtucha soʻzlashgich”, -Toshkent.2009. 36-b.

Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlar o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi. So'z birikmasini hosil qiluvchi so'zlar leksik mustaqilligini saqlaydi va ular o'rtasida sintaktik aloqa ham bo'ladi. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlarga quyidagi so'zlarni misol tariqasida keltiramiz:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O'zbek tilida
1.	بوریک ایسید	[boraik āsid]	boracic	borat kislota
2.	کاربن پیپر	[kārbən pepər]	carbon paper	karbon (ko'mir) qog'ozi
3.	گول کیپر	[gōl kepər]	goalkeeper	darvozabon
4.	هاف بیک	[hāf bek]	half back	yarim himoyachi
5.	پینگ پانگ	[ping pāng]	ping pong	stol tennisi
6.	ساینس پوه	[sāins pōh]	scientist	ilmiy xodim
7.	شامپو کونه	[šāmpū kūna]	shampoo	shampun
8.	غورکیک	[γūr kek]	shortcake	mevali kichik pirog
9.	تیسٹ ٹوب	[tēsť tūb]	test tube	probirka
10.	فلش پروگرام	[falsh prōgram]	false program	programmami saqllovchi xotira
11.	دراگن آیل	[drāgan āil]	Dragon oil	“Drakon oil”
12.	نیوز نایت	[nevz nāyť]	news night	kechki yangiliklar
13.	سیلک رود	[silk rōd]	silk road	ipak yo'li

3.1.4. Leksikalizatsiya

Leksikalizatsiya-sintaktik birlik (soʻz birikmasi yoki gap)ning leksik birlikka (lugʻaviy birlikka), yaʼni soʻz yoki turgʻun iboraga aylanishi. Masalan: ish haqi, temir yoʻl, mingboshi. Pushtu tilidagi ingliz oʻzlashmalarida esa leksikalizatsiya usulida yasalgan quyidagi soʻzlar mavjud:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
1.	کریڈیت کارڈ	[kredit kārḍ]	credit card	kredit kartochkasi
2.	پوسټ کارڈ	[post kārḍ]	postcard	otkritka
3.	اتومی بم	[atōmi bam]	atomic bam	atom bombasi
4.	فیلڈ مارشال	[feld mārḡāl]	feld marshal	feldmarshal

3.1.4. Gibril terminlarning soʻz yasallishidagi oʻrni.

Keyingi yillarda jahon tillarida yangi termin - gibril terminlar paydo boʻldi. Gibril terminlar soʻz yoki soʻz birikmalarining yarmi xorijiy soʻz, qolgan yarmi esa shu tilning oʻz soʻzi hisoblanadi. Pushtu tilida ingliz tilidan oʻzlashgan gibril terminlarga bir necha misollar keltirishimiz mumkin:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
1.	ویبپاڼه	[vebpāna]	webpage	vebsahifa
2.	ډگر جنرال	[ḍagar janrāl]	colonel general	general-polkovnik
3.	د ټانک ټولۍ	[də tank tūlay]	tank group	tankli (guruh)
4.	د ضد ټانک احتیات	[ziddi tank ehtiyāt]	tank against	tankka qarshi
5.	ډینگی تبہ	[ḍengi taba]	dengue fever	xaflı gripp
6.	د چایو پارټی	[də chāyō pārti]	tea party	choy marosimi
7.	میخانیکی کسبکار	[mexāniki kasbkār]	mechanic	mexanik

Yuqorida oʻzlashmalar ishtirokida soʻz yasallishini koʻrib chiqdik. Pushtu tili lugʻat tarkibining boyishida ichki lingvistik usul yetakchi boʻlib kelganiga guvoh boʻldik. Ayniqsa, affiksatsiya usuli bilan yasalgan soʻzlar yetakchi oʻrinni

egallaydi. Kompozitsiya usuli ham ancha sermahsul usul ekanligiga amin bo'ldik. So'z yasalihi usullari ichida kammahsul usul bu leksikalizatsiya usuli bo'lib, bu usul bilan yasalgan so'zlar pushtu tilidagi ingliz o'zlashmalarida juda kam uchraydi. Bu usullardan tashqari ingliz o'zlashmalari ichida izofali birikmalar va gibrid terminlar ham uchrashiga guvoh bo'ldik.

Xulosa

Mazkur ishda pushtu tilidagi inglizcha o'zlashmalar har tomondan pushtu tili qonun-qoidalariga moslashganiga guvoh bo'ldik. Inglizcha o'zlashmalarni pushtu tiliga kirib kelishini davrlarga ajratish muhim yangilik bo'ldi va o'zlashmalarni davrlardagi o'zlashish mavzularida qaysi mavzu yetakchiligi aniqlandi. Masalan, 2001-yildan keyingi davrdagi o'zlashmalar tematikasida asosan fan-texnika yutuqlari va harbiy terminlar ustunligi qayd etildi.

Ikkinchi bobda o'zlashmalarning fonetik moslashuvi tadqiq etildi. Ayniqsa, inglizcha o'zlashmalar tarkibidagi harf va tovushlarga katta e'tibor berilib, ularning pushtu tili fonetikasida qanday shakllanganligi aniqlandi. Ushbu bobning ikkinchi bo'limida o'zlashmalarning ma'no torayishi va kengayish hodisasi o'rganildi. Ba'zi bir inglizcha o'zlashmalarning ikki ma'nosi pushtu tilida ikki xil shaklda yozilishi aniqlandi. Masalan, inglizcha "viza" so'zining ikki ma'nosi pushtu tilida ikki xil shaklda beriladi.

Uchinchi bobda inglizcha o'zlashmalarning pushtu tili leksikasidagi o'rni tadqiq etildi. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, pushtu tilida to'plangan 600 ga yaqin inglizcha o'zlashmalarning atigi 40 tasi ushbu bobga tegishlidir. Bundan kelib chiqadiki, inglizcha o'zlashmalar orqali yangi so'z hosil bo'lish ko'rsatkichi aytarliq darajada yuqori emas. Masalan, to'plangan o'zlashmalar orasidan bitta ham transpozitsiya orqali yasalgan so'zni uchratmadik.

Mazkur ishning barcha bob va bo'limlari so'ngida ushbu mavzularga doir aniq xulosalar qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi manbalar:

1. Karimov I.A. Ilm-ziyo salohiyati-nutq boyligi. Ma'rifat gazetasi. 1993.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.- 185-b.
3. Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.
4. O'zbek tili grammatikasi 1- tom. T., "Fan", 1975.612-bet
5. Sayfullayeva R., Mengaliyev B.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Fan va texnologiya" nashriyoti 2009.
6. Normatov Z. Ma'ruzalar matni. 2010-2011.
7. G'ulomov A., Asqarov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qtuvchi, 1985. – 315-bet
8. Hamroyeva M. A. O'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1999.
9. "O'zbek tili leksikologiyasi".- Toshkent: Fan, 1981

Rus va ingliz tilidagi manbalar:

1. Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. - М., 1972.
2. Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном пушту.- М., 1967.
3. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- Москва., 1956-й
4. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). Ленинград, 1987.
5. Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.-М., 2003.
6. Penzl H. A Grammar of Pashto. Washington., 1955.
7. Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебник языка пушту. Москва., 2001.
8. Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-Москва., 1985.
9. Morgensterni. Etymological vocabulary of Pashto, Oslo, 1927.
10. G. Penzlning "Western Loanwords in modern Pashto", Journal of Oriental Society.-Washington, 1961.
11. Directorate of Zeray Weekly Institute of Languages and Literature.The Academy of Sciences of Afghanistan. –Kobul, 1979.

Badiy adabiyotlar ro'yxati:

1. د رښتيني بوتيډه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م.
2. خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.

Internet saytlari:

1. Hevod.com
2. Afganistan.ru
3. afgannews.com